Инновационные факторы развития аграрного производства региона.....	1109
Сирожиддинов Икромиддин Кутбиддинович	
Анализ развития зеленой экономики в глобальном контексте и в Республике Узбекистан.....	1114
Хусаинов Равшан Рахимович	
Marketing jarayonlarida emotsional intellektning roli va uning neyromarketing strategiyalari samaradorligiga ta'siri	1120
Pulatova Nigoraxon Nurullaevna	
O'zbekiston hududlarida aholi bandligi tahlili (2020–2024-yillar).....	1124
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Barqaror qishloq xo'jaligida yashil logistika (Green Logistics) mexanizmlarini joriy etish.....	1128
Abdirashidov Temurbek Abdirashid o'g'li	
Innovatsion iqtisodiyotda karshering xizmatlarining nazariy asoslari.....	1134
Haydarov Jahongir Aktamovich	
Mintaqada mehmonxona xo'jaligida investitsiya samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar	1139
Jasur Berdiyev	
Turizm xizmatlari samaradorligini oshirish metodologiyasini rivojlantirish	1143
Toshev Nurbek Janon o'g'li	
Iqtisodiy barqarorlikka erishishda quyosh panellarining roli	1147
Qodirov Bahodirjon Tursunovich	
Milliy malaka tizimining yagona raqamli platformasi: nazariy va amaliy jihatlar.....	1152
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna, Egamkulov Aziz Abdurasulovich	
Surxondaryo viloyatida meva-sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlarini ARIMA modeli orqali ekonometrik modellashtirish	1156
Jo'rayev Olim Albayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv mohiyatini aniqlashning ilmiy yondashuvlari.....	1163
Temirov Abdulaziz Alimjanovich	
Asosiy vositalarni hisobga olish va ularni audit qilish masalalari: nazariy va amaliy yondashuvlar	1168
Diyorbek Mamarasulov Alijon o'g'li	
Анализ и постановка выбора путей подготовки и принятия решений для разработки и внедрения методических подходов к постановке управленческого анализа.....	1173
Минутдинова Лилия Тагировна	
Aksiyadorlik jamiyatining aksiyadorlar bilan o'zaro hamkorlik shakllari va tamoyillari tasnifi.....	1180
Sangilova Aziza Baxtiyarovna, Samariddin Elmirzayev	
Qishloq joylarida xizmatlar sohasini rivojlanishi orqali kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish.....	1186
Sultonov Shodiyor Abduhalilovich, Usmonov Murodbek Dusmurot o'g'li	
Kichik biznes markazlari raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha uslubiy tavsiyalar	1190
Eshmirzayev Nodirjon Mamadraximovich	
Kichik biznesda innovatsion autsorsingdan foydalanishga ta'sir etuvchi omillar.....	1194
Tojibayev O.O.	
Venchur kapitalining iqtisodiy ahamiyati.....	1199
Zaynutdinova Umida Jalolovna	



Naqd pulsiz to'lovlar tizimini raqamlashtirishning dolzarb masalalari	1202
Xakimova (Isayeva) Lobar Baxodirovna	
Konchilik sanoatida ekologik xavfsizlik va ijtimoiy mas'uliyatni ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari	1207
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'zbekiston qishloq xo'jaligida yashil texnologiyalarni joriy etish: imkoniyatlar va muammolar	1211
Tosheva Maftuna Rustamovna	



O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR

Tosheva Maftuna Rustamovna

“TIQXMMI” MTU tayanch doktranti

E-mail: maftunamironshoh@gmail.com

ORCID: 0009-0002-0405-659X

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston qishloq xo'jaligida yashil texnologiyalarni joriy etishning imkoniyatlari va mavjud muammolari tahlil qilingan. Monografik tadqiqotlar asosida fermer xo'jaliklari daromadi, yer maydoni, ko'p tarmoqli faoliyat hamda axborot resurslaridan foydalanish kabi omillarning organik dehqonchilik, aniq dehqonchilik va quyosh energiyasi texnologiyalariga ta'siri baholanib, shu asosda umumiy xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, GPS-navigatsiya, dronlar yordamidagi monitoring, sensor tizimlari, biogaz, organik dehqonchilik, quyosh energiyasi loyihalari, davlat-xususiy sheriklik.

Abstract: The article analyzes the possibilities and existing problems of implementing green technologies in Uzbekistan's agriculture. Based on monographic studies, the influence of such factors as the income of farms, land area, multi-sectoral activities, and the use of information resources on organic farming, precision farming, and solar energy technologies was assessed, and general conclusions were developed based on this.

Key words: green economy, GPS navigation, drone monitoring, sensor systems, biogas, organic farming, solar energy projects, public-private partnership.

Аннотация: В статье анализируются возможности и существующие проблемы внедрения зеленых технологий в сельском хозяйстве Узбекистана. На основе монографических исследований оценено влияние таких факторов, как доход фермерских хозяйств, площадь земель, многоотраслевая деятельность и использование информационных ресурсов на органическое земледелие, точное земледелие и технологии солнечной энергии, и на этой основе разработаны общие выводы.

Ключевые слова: зеленая экономика, GPS-навигация, мониторинг с помощью дронов, сенсорные системы, биогаз, органическое земледелие, проекты солнечной энергии, государственно-частное партнерство.

KIRISH

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yashil texnologiyalarni keng joriy etish masalasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta'minlash nuqtayi nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish tamoyillariga to'liq mos keladi hamda jahon miqyosida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ—4477-son¹ qarori va iqlim o'zgarishi masalalarini milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga integratsiya qilishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

Qayd etish joizki, yashil texnologiyalarni joriy etishning o'ziga xos murakkab jihatlar ham mavjud. Ularni amalga oshirish ko'pincha katta moliyaviy resurslarni talab qiladi. Masalan, organik dehqonchilik tizimini shakllantirishda tuproq unumdorligini saqlash, kimyoviy moddalardan voz kechish, biologik himoya usullarini joriy etish kabi chora-tadbirlar zarur bo'lib, ular qo'shimcha xarajatlar va uzoq muddatli investitsiyalarni talab etadi.

Aniq dehqonchilik usullari esa ilg'or axborot texnologiyalari va zamonaviy o'lchash vositalariga asoslanadi. GPS-navigatsiya, dronlar yordamidagi monitoring, sensor tizimlari va ma'lumotlarni qayta ishlash dasturlari ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirib, suv va mineral o'g'itlar sarfini sezilarli darajada kamaytiradi. Ammo,

¹ <https://lex.uz/uz/docs/-4539502>



bunday uskunalarning joriy qilinishi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi subyektlar uchun katta dastlabki sarmoyalarni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

A.Hamidov va hamkorlari[3] maqolasida O'zbekiston sharoitida suvni tejovchi sug'orish texnologiyalarini joriy etish natijasida paydo bo'ladigan "rebound" (qayta to'liq yo'q qilish) effektlarini e/kspert interv'yulari asosida baholaydi. Mualliflar 2013—2019-yillardagi subsidiyalar va amaliy o'rnatishlar (drip, sprinkler) misolida texnik samaradorlikka qaramay, fermer xulq-atvori va siyosiy rag'batlar natijasida haqiqiy suv tejami kamayishi mumkinligini ko'rsatadi. Siyosiy tavsiya sifatida A.Hamidov monitoring, suv hisoblagichlari va integratsiyalashgan siyosat zarurligini ta'kidlaydi.

N.Ashurmetova va hamkasblari[4] ilmiy ishida "raqamli qishloq xo'jaligi" konsepsiyasini O'zbekiston kontekstida tahlil qilib, 2020–2030 strategiyalari bilan bog'liq amaliy imkoniyatlarni ko'rsatadi. Maqola katta fermalar va agregatorlar o'rtasida raqamli modellash, aniq agrotexnika (precision farming) va ma'lumot almashinuvi tizimlari qanday samaradorlikni oshirishini amaliy misollar bilan ochib beradi. Mualliflar raqamli texnologiyalarni joriy etishda institutlararo koordinatsiya va kadr tayyorlash muhimligini urg'ulaydi.

A.Uroqov va hamkorlari[5] tadqiqotida fotovoltaik tizimlarni sug'orish inshootlariga integratsiyalash bo'yicha loyiha tahlilini taqdim etadi. Ular PV-psevdo-rejimlarda nasos stansiyalarini quvvatlantirish, PVsyst orqali loyihalashtirish natijalarini va tomchilatib sug'orish bilan birgalikda suv va energiya tejash (taxminan 45–50%) imkoniyatlarini ko'rsatadi. Tadqiqot markerlari mahalliy sharoitda qayta tiklanuvchi energiya asosidagi sug'orish tizimlari iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali ekanini tasdiqlaydi. Amaliy tavsiya — kichik-o'rta fermerlar uchun modulli PV-drip paketlari.

N.Ikramov va boshqalar[6] maqolasida energiya va suv samaradorligini real vaqtda monitoring qilish tizimlarini O'zbekiston nasos stansiyalarida joriy etish zaruriyatini ilmiy asosda bayon etadi. Mualliflar 1,693 nasos stansiyasi va yillik 8–8.2 mlrd kVt·soat iste'molni misol qilib, avtomatlashtirilgan o'lchovlar, suv-elektr energiyasi hisoblagichlari va PV integratsiyasi orqali operatsion xarajatlar va yo'qotishlarni sezilarli kamaytirish mumkinligini ko'rsatadi. Siyosat jihatidan — milliy monitoring platformasi va investitsiya paketlari tavsiya etiladi.

A.Xayitxunov[7] ilmiy izlanishida Markaziy Osiyo mintaqasi qishloq xo'jaligining holati va rivojlanish perspektivalarini katta makrorivojlanish kontekstida tahlil qiladi. Muallif past mahsuldorlik, moliyalashtirish va institutlar sifati muammolari natijasida raqobatbardoshlik pastligini ko'rsatadi va mintaqaviy hamkorlik, klimga mos investitsiyalar hamda texnologik yangilanishlar (jumladan yashil va raqamli texnologiyalar) orqali samarani oshirish imkoniyatlarini taklif etadi. Ushbu umumiy mintaqaviy kuzatishlar O'zbekiston uchun strategik yo'nalishlarni aniqlashda foydali.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Quyosh energiyasi texnologiyalari qishloq joylarda elektr ta'minoti barqarorligini ta'minlash, qo'shimcha xarajatlarni qisqartirish va iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, quyosh panellari va energiya saqlash tizimlarining xarid va o'rnatish xarajatlari fermer xo'jaliklari uchun moliyaviy qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Shu sababli, yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida iqtisodiy tahlil va baholash asosiy mezon sifatida xizmat qiladi. Investitsiyalarning qay darajada samara berishi, xarajatlarni qoplash muddati, bozorda organik mahsulotlarga bo'lgan talab, davlat qo'llab-quvvatlash choralari va kredit resurslariga erishish imkoniyatlari kabi omillar hisobga olinishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, yashil texnologiyalarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga keng tatbiq etish nafaqat alohida ishlab chiqaruvchi subyektlar samaradorligi uchun, balki mamlakat miqyosida qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi, eksportbop va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish, qishloq aholisining turmush darajasini yuksaltirish hamda umumiy iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Bunday texnologiyalarni keng tatbiq etish jarayonida ularning iqtisodiy samaradorligini baholash dolzarb ahamiyatga ega. Chunki iqtisodiy tahlil fermer xo'jaliklariga investitsiya qarorlarini qabul qilishda, mablag'larni samarali taqsimlashda va bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlashda asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Masalan, organik dehqonchilik mahsulotlari yuqori bozor narxida sotilishi mumkin, ammo ularni yetishtirish jarayonidagi qo'shimcha mehnat va texnologiya xarajatlari iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishi shart.



Fermer xo'jaliklari faoliyatida yashil texnologiyalarni keng joriy etish jarayonida, ayniqsa organik dehqonchilik, aniq dehqonchilik usullari va quyosh energiyasi texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini iqtisodiy jihatdan baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni optimallashtirish va ishlab chiqarishning barqarorligini ta'minlash bilan birga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini oshirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ya'ni, masala dolzarbligi shundaki – iqtisodiy baholash asosida fermerlar uchun qaysi texnologiya turini tanlash, uni qay darajada investitsiyalash va qay tartibda joriy qilish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlanadi.

Fermer xo'jaliklarida yashil texnologiyalarni joriy etishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish maqsadida Toshkent va Samarqand viloyatlarida tasodifiy tanlanma usuli asosida 624 ta fermer xo'jaligi o'rtasida ijtimoiy so'rovnoma o'tkazildi.

Dastlab, fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonida organik dehqonchilik, aniq dehqonchilik usullari hamda quyosh energiyasi texnologiyalaridan foydalanishga ta'sir etuvchi bir qator omillar aniqlandi. Jumladan, fermer xo'jaliklarida o'rtacha 1 gektardan olinadigan daromad (daromad_ga), umumiy ekin maydoni (ekin_maydoni), fermer xo'jaligida ko'p tarmoqli faoliyatning mavjudligi (kup_tarmoq) hamda asosiy tarmoq faoliyati sifatida chorvachilik yo'nalishi (chorva) mustaqil o'zgaruvchi sifatida qabul qilindi.

Zero, daromad ko'rsatkichi fermerning iqtisodiy imkoniyatlarini, ya'ni yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish salohiyatini belgilaydi; ekin maydoni esa ishlab chiqarish ko'lamini, texnologiyalarni qo'llash samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ko'p tarmoqli faoliyat xavflarni diversifikatsiya qilish orqali innovatsiyalarni joriy etish imkoniyatini oshiradi. Chorvachilikning mavjudligi esa organik o'g'itlardan foydalanish hamda quyosh energiyasi kabi texnologiyalarni qo'llashda qo'shimcha ustunlik yaratadi. Shu sababli ushbu omillar yashil texnologiyalarning samarali qo'llanilishi uchun eng muhim ko'rsatkichlar sifatida tanlandi.

Shuningdek, fermer xo'jaligi rahbarlarining yashil texnologiyalarni joriy etish va ularning samaradorligi haqidagi ma'lumot manbalari alohida tahlil qilindi. Chunki, texnologiyalarni joriy etishda rahbarning xabardorlik darajasi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki fermer qanchalik ishonchli va ilmiy asoslangan ma'lumotga ega bo'lsa, u shunchalik yangi texnologiyalarni qo'llashga moyil bo'ladi va ularning iqtisodiy hamda ekologik samaradorligini to'g'ri baholay oladi. Agar ma'lumot manbalari yetarli bo'lmasa yoki noto'g'ri bo'lsa, hatto yuqori daromad va katta ekin maydonlariga ega fermerlar ham innovatsiyalarni joriy qilishdan qochishi mumkin. Shu bois, rahbarlarning bilim manbalari yashil texnologiyalarning amaliy tatbiqi uchun asosiy psixologik-axborotiy shart-sharoit sifatida tanlandi.

Bu yerda rahbarlar tomonidan televidenie ko'rsatuvlari, boshqa fermer xo'jaliklari rahbarlari, ijtimoiy tarmoqlar, tuman va viloyat miqyosida o'tkazilgan seminar-treninglar hamda reklama banerlaridan foydalangan yoki foydalanmaganligini ifodalovchi ikki lik o'zgaruvchilar shakllantirildi. Tadqiqot natijasida, fermer xo'jaliklari rahbarlarining 69,4 foizi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishi ma'lum bo'ldi.

Bundan tashqari, fermer xo'jaliklarida yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonida ishtirokchi subyektlarning malaka va bilimlarini oshirish maqsadida o'tkazilgan seminar-treninglar ham muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etildi. Shuni hisobga olgan holda, seminar-treninglarda ishtirok etganlik holatini ifodalovchi to'rtta bog'liq o'zgaruvchi belgilandi. Ular quyidagilardan iborat: davlat dasturlari doirasida tashkil etilgan treninglar, NNT va fermerlik uyushmalari tomonidan o'tkazilgan tadbirlar, xususiy kompaniyalar va sotuvchilar tashabbusi bilan amalga oshirilgan treninglar, shuningdek, universitet va ta'lim muassasalari tomonidan o'tkazilgan seminarlar (1-jadval).

1-jadval. O'zgaruvchilarning statistik tavsifi

O'zgaruvchilar	O'rtacha	St.Og'ish.	Min	Max
Organik dehqonchilik usullaridan foydalangan bo'lsa – 1, aks holda – 0 (yatex foy organik)	.599	.49	0	1
Aniq dehqonchilik usullaridan foydalanilgan bo'lsa – 1, aks holda – 0 (yatex foy jps)	.587	.493	0	1
Quyosh energiyasi texnologiyalari qo'llanilgan taqdirda – 1, aks holda – 0 (yatex foy qiyosh)	.2	.401	0	1
O'rtacha 1 gektardan olingan daromad, mln.so'm (fermer_daromad)	11.575	5.021	.914	109.6
Fermer xo'jaligining ekin maydoni, gektar	40.64	26.282	5	164
Fermer xo'jaligida ko'p tarmoqli faoliyat tashkil etilgan bo'lsa (ham – 1; yo'q – 0)	.647	.478	0	1
Fermer xo'jaligining asosiy tarmoq faoliyati o'simlikchilik (ha – 1; yo'q – 0)	.628	.484	0	1



Fermer xo'jaligi rahbarining jinsi, (erkak)	.731	.444	0	1
Fermer xo'jaligi rahbarining ma'lumoti o'rta bo'lsa – 1; o'rta maxsus bo'lsa – 2 va oliy ma'lumotga ega bo'lgan bo'lsa – 3 (malumot)	2.12	.516	1	3
Yashil texnologiyani joriy etish, uning samaradorligi to'g'risida ma'lumotlarni qayerdan olgansiz?				
TV ko'rsatuvlardan (ha – 1; yo'q – 0)	.622	.485	0	1
Fermer xo'jaligi rahbarlaridan (ha – 1; yo'q – 0)	.363	.499	0	1
Ijtimoiy tarmoqlardan (ha – 1; yo'q – 0)	.694	.461	0	1
Treninglardan (ha – 1; yo'q – 0)	.621	.485	0	1
Reklama banerlaridan (ha – 1; yo'q – 0)	.54	.499	0	1
Yashil texnologiyalar yoki barqaror dehqonchilik amaliyoti bo'yicha biron bir rasmiy treningdan o'tganmisiz				
Davlat dasturlari (ha – 1; yo'q – 0)	.425	.419	0	1
NNT yoki boshqa tashkilotlar (ha – 1; yo'q – 0)	.317	.292	0	1
Xususiy kompaniyalar/sotuvchilar (ha – 1; yo'q – 0)	.224	.193	0	1
Universitet/ta'lim muassasalari (ha – 1; yo'q – 0)	.463	.453	0	1

Tadqiqotlarga ko'ra, ya'ni omillar tahlili modeli asosida fermer xo'jaliklarida yashil texnologiyalarni joriy etish jarayonining umumiy xususiyatlarini aks ettiruvchi indikatorlar ishlab chiqildi. Xususan, "Yashil texnologiyani joriy etish va uning samaradorligi to'g'risida ma'lumotlarni qayerdan olganligi" hamda "Yashil texnologiyalar yoki barqaror dehqonchilik amaliyoti bo'yicha rasmiy treninglarda ishtirok etganligi" kabi o'zgaruvchilar asos qilib olindi. Ushbu ko'rsatkichlar asosida quyidagi indekslar shakllantirildi:

– "Yashil texnologiyalarni joriy etish va samaradorligi to'g'risida ma'lumotlardan foydalanish indeksi" – fermer xo'jaliklari rahbarlarining turli manbalardan (televidenie, ijtimoiy tarmoqlar, reklama, seminar-treninglar va h.k.) olingan axborotlardan qanchalik foydalanish darajasini ifodalaydi;

– "Yashil texnologiyalar bo'yicha treninglarda ishtirok etish indeksi" – davlat dasturlari, NNTlar, xususiy kompaniyalar yoki ta'lim muassasalari tomonidan tashkil etilgan rasmiy seminar-treninglarda qatnashish holatini aks ettiradi. Natijada, ushbu indekslar fermer xo'jaliklarining yashil texnologiyalarni o'zlashtirishdagi bilim, tajriba va axborot resurslaridan foydalanish darajasini tizimli ravishda baholash imkonini yaratadi (2-jadval).

2-jadval. Umumiy xususiyatni ifodalovchi o'zgaruvchilar uchun omilli tahlil modeli test natijalari

№	Indekslar	Shartlar va test natijalari		
		KMO≥0,50	p=0,000	Det>0,00001
1.	Yashil texnologiyalarni joriy etish va samaradorligi to'g'risida ma'lumotlardan foydalanish indeksi	0,540	0,000	0,898
2.	Yashil texnologiyalar bilan bog'liq treninglarda ishtirok etish indeksi	0,603	0,000	0,906

KMO (Kaiser–Meyer–Olkin) ko'rsatkichi, Bartlett (Bartlett, χ^2) testi hamda korrelyatsiya matritsasi natijalari tahlil qilinganda, ikki asosiy indeksni shakllantirish mumkinligi aniqlandi. Umuman olganda, ushbu ikki indeks mustaqil o'zgaruvchi sifatida qabul qilindi va ular fermer xo'jaliklarida yashil texnologiyalarni joriy etishga ta'sir etuvchi omillar sifatida baholandi.

Fermer xo'jaliklariga yashil texnologiyani joriy etishni ifodalovchi bog'liq o'zgaruvchi ikkilik o'zgaruvchi bo'lganligi uchun tahlilda logit modelidan foydalanildi. Mazkur modellar – bog'liq o'zgaruvchi qiymati binar (0 va 1) qiymatda ifodalab, qaysiki fermer xo'jaligi subyektlari tomonidan yashil texnologiyadan, ya'ni organik dehqonchilik, aniq dehqonchilik usullaridan hamda quyosh energiyasi texnologiyalaridan foydalanilgan bo'lsa 1 va aksincha 0 qiymatlarni qabul qiladi.

Logit modelining umumiy funksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$y_i = \alpha + \beta_1 x_1 + \beta_2 x_2 + \dots + \beta_n x_n + \varepsilon_i \quad (2)$$

$$y_i = \begin{cases} 1, & y_i^* > 0 \\ 0, & y_i^* < 0 \end{cases}$$

Bu yerda:



y_i = bog'liq o'zgaruvchi;

α = funksiya uchun o'zgarmas qiymat;

x_n = mustaqil o'zgaruvchilar;

β_n = mustaqil o'zgaruvchilar uchun elastiklik koeffitsiyentlari;

ε_i = standart xatoliklar.

STATA17 dasturiy paketdan foydalanilgan holda bog'liq o'zgaruvchilarga mustaqil o'zgaruvchilar ta'siri iqtisodiy baholandi va marjinal ta'sir doirasi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval. Fermer xo'jaliklari faoliyatiga yashil texnologiyalarni joriy etishga ta'sir etuvchi omillarni iqtisodiy baholashda marjinal tahlili

O'zgaruvchilar	(1) Yatex_foy_organik (dy/dx (std. err.) P>z)	(2) Yatex_foy_jps (dy/dx (std. err.) P>z)	(3) Yatex_foy_qiyosh (dy/dx (std. err.) P>z)
daromad_ga	0.018 (0.008)**	0.029 (0.031)***	0.182 (0.003)***
ekin_maydon	0.002 (0.001) **	0.088 (0.001)**	0.078 (0.001)**
kup_tarmoq	0.105 (0.042) **	0.005 (0.042)*	0.074 (0.035) **
chorva	0.069 (0.042) **	-0.069 (0.033)*	- 0.013 (0.034)*
fbar_elon_indeksi	0.184 (0.069) ***	0.184 (0.069)**	0.052 (0.055)***
fbar_trening_indeksi	0.071 (0.069) ***	0.371 (0.066)***	0.039 (0.057)***
erkak	0.012 (0.045) **	0.012 (0.045)	0.016 (0.035)*
malumot	0.046 (0.040) **	0.046 (0.040)**	0.048 (0.032)***
Number of obs	624	624	624
Prob > chi2	0.000	0.000	0.000
Pseudo r-squared	0.033	0.093	0.221

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, fermer xo'jaliklari faoliyatida organik dehqonchilikdan foydalanishda o'rtacha 1 gektardan olingan daromad 5 foiz ($p < 0.05$) darajasida statistik muhim ahamiyatga ega bo'lib, 1 mln so'mga oshishi organik dehqonchilikdan foydalanish ehtimolini 1,8 foizga oshiradi. Shuningdek, umumiy ekin maydoni, ko'p tarmoqli faoliyatning tashkil etilganligi va asosiy tarmoq faoliyati ham 5 foiz ($p < 0.05$)da statistik ahamiyatga ega bo'lib, organik dehqonchilikdan foydalanish ehtimolini mos ravishda 0,2; 10,5 va 6,9 foizga oshiradi. Chorvachilik faoliyatining mavjudligi organik dehqonchilikka ijobiy ta'sir ko'rsatib, chorva mollaridan olinadigan organik o'g'it bu jarayonda asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Fermer xo'jaliklarida innovatsiyalarni joriy etishdan olinadigan daromad o'sishi innovatsiyalarning samaradorligini va ularni joriy qilish bilan bog'liq xizmatlarning tizimli tashkil etilishiga bog'liq. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, organik dehqonchilik to'g'risida axborotga ega bo'lish indeksi 1 birlikka oshsa, organik dehqonchilikdan foydalanish ehtimoli 18,4 foizga oshadi va bu ko'rsatkich 1 foiz ($p < 0.01$)da statistik ahamiyatga ega. Bu esa davlat yoki tashkilotlar tomonidan ma'lumotlar yetkazib berish jarayonini tizimli yo'lga qo'yish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, organik dehqonchilik bo'yicha treninglarda ishtirok etish indeksi 1 birlikka oshsa, bunday texnologiyadan foydalanish ehtimoli 7,1 foizga oshadi va 1 foiz ($p < 0.01$)da statistik ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, organik dehqonchilikni amalda joriy etish fermer xo'jaliklari daromadlari va davlat tomonidan taqdim etiladigan imtiyozli kreditlarga bog'liq.

Aniq dehqonchilik usullaridan foydalanish resurslardan samarali foydalanishga ijobiy ta'sir ko'rsatsa-da, ularning yuqori bahosi fermerlarning bunday texnologiyalarga murojaatini cheklaydi. Bu holatda kooperatsiya tizimini yo'lga qo'yish yoki yangi xizmat turlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijalariga ko'ra,



o'rtacha gektardan olingan daromadning 1 mln so'mga oshishi aniq dehqonchilik usullaridan foydalanish ehtimolini 2,9 foizga oshiradi va 1 foiz ($p < 0.01$)da statistik ahamiyatga ega.

Ko'p tarmoqli faoliyatning mavjudligi va asosiy tarmoq sifatida chorvachilik bilan shug'ullanish 10 foiz ($p < 0.05$) darajasida ahamiyatli bo'lib, ko'p tarmoqli faoliyat aniq dehqonchilikdan foydalanish ehtimolini 0,5 foizga oshirsa, chorvachilik asosiy tarmoq bo'lgan holda bu ko'rsatkich 6,9 foizga pasayadi. Shuningdek, paxta va g'alla ekinlarini yetishtirish aniq dehqonchilik usullarini joriy etish ehtimolini oshirishi kuzatilgan.

Ma'lumotlardan foydalanish indeksi 1 birlikka oshsa, aniq dehqonchilik usullaridan foydalanish ehtimoli 18,4 foizga oshadi va 5 foiz ($p < 0.05$)da ahamiyatli hisoblanadi. Treninglarda ishtirok etish indeksi esa 1 birlikka oshganda ushbu ko'rsatkich 37,1 foizga oshadi va 1 foiz ($p < 0.01$)da statistik ahamiyatga ega.

Quyosh energiyasi texnologiyalaridan foydalanishda ham ma'lumotga ega bo'lish va treninglarda qatnashish ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yashil texnologiyalar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lish indeksi 1 birlikka oshsa, quyosh energiyasi texnologiyalaridan foydalanish ehtimoli 5,2 foizga, treninglarda ishtirok etish indeksi esa 3,9 foizga oshadi. Ikkalasi ham 1 foiz ($p < 0.01$)da ahamiyatlidir.

Yuqoridagi tahliliy ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, bizningcha, quyidagi amaliy tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Organik dehqonchilikni rivojlantirish. Fermer xo'jaliklari daromadlarining o'sishi organik dehqonchilikni joriy etish ehtimolini oshirishi aniqlandi. Shu bois organik dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi fermerlarga imtiyozli kreditlar ajratish va ularning bozordagi daromadini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, organik mahsulot yetishtiruvchi fermerlarni davlat xarid dasturlariga ustuvor ravishda jalb qilish hamda organik mahsulotlar uchun sertifikatsiyalash markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Axborot va bilimlarning ahamiyati. Organik hamda aniq dehqonchilik texnologiyalaridan foydalanishda axborot resurslariga ega bo'lish va treninglarda ishtirok etish asosiy harakatlantiruvchi kuchlardan hisoblanadi. Shu sababli davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan axborot tarqatish, malaka oshirish kurslari va keng qamrovli agrar konsulting xizmatlarini tizimli yo'lga qo'yish zarur. Xususan, onlayn va oflayn treninglarni yo'lga qo'yish, qishloq hududlarida agrar axborot punktlari orqali ilmiy-tadqiqot institutlari yangiliklarini yetkazib berish muhim vazifalardan sanaladi.

Ko'p tarmoqli faoliyat va chorvachilikning o'rni. Ko'p tarmoqli faoliyat fermerlarning yashil texnologiyalarga qiziqishini oshirsa, asosiy tarmoq sifatida chorvachilik bilan shug'ullanish aniq dehqonchilikdan foydalanish ehtimolini pasaytiradi. Shuning uchun chorvachilik bilan shug'ullanuvchi fermerlar uchun maxsus qo'llab-quvvatlash dasturlari va organik o'g'itdan samarali foydalanish texnologiyalari joriy qilinishi maqsadga muvofiq.

Aniq dehqonchilikning yuqori xarajatlari. Aniq dehqonchilik texnologiyalari samarador bo'lsa-da, ularning yuqori bahosi keng qo'llanilishini cheklamoqda. Shu sababdan:

fermerlar o'rtasida kooperatsiya tizimini yo'lga qo'yish,
texnika va uskunalarni lizing asosida berish,
xizmat ko'rsatuvchi markazlarni tashkil qilish muhim ahamiyatga ega.

Quyosh energiyasi texnologiyalari. Quyosh energiyasidan foydalanishga oid ma'lumot va treninglar fermerlar tomonidan bu texnologiyalarni qabul qilish ehtimolini keskin oshiradi. Shu sababli agrar sohada energiya tejankor texnologiyalarni joriy qilish bilan bog'liq amaliy treninglar va namoyish loyihalarini tashkil etish zarur.

Iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlari. Yashil texnologiyalarni joriy etuvchi fermerlar uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalari va grantlar tizimini yo'lga qo'yish ularning keng tarqalishiga zamin yaratadi. Shuningdek, xorijiy grantlarni jalb qilish orqali moliyaviy rag'batlantirish tizimini yanada takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Xulosa qilib aytganda, yashil texnologiyalarni qishloq xo'jaligida keng joriy etish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash, axborot va bilim berish tizimi, hamkorlik (kooperatsiya) imkoniyatlari va infratuzilmani rivojlantirish asosiy amaliy yo'nalishlar hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston qishloq xo'jaligida yashil texnologiyalarni joriy etish jarayoni barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanib, ekologik muvozanatni saqlash hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan. So'nggi yillarda tomchilatib sug'orish, quyosh energiyasidan foydalanish va raqamli nazorat tizimlari orqali sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Biroq texnologik yangiliklarni ommalashtirishda moliyaviy resurslarning cheklanganligi, kadrlar salohiyatining yetarli emasligi va ilmiy izlanishlarning amaliyot bilan uzviy bog'lanmaganligi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu bois, davlat siyosati, xususi sektor va ilmiy institutlar o'rtasida mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida o'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surishimiz mumkin:

Soliq imtiyozlari va subsidiyalarni kengaytirish. Yashil texnologiyalarni joriy etayotgan fermer xo'jaliklariga maqsadli imtiyozlar berish ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, bu esa yangi texnologiyalarni tezroq joriy etishga turtki beradi.



Mahalliy innovatsion ishlab chiqarish va servis tizimini rivojlantirish. Import hajmini kamaytirish uchun irrigatsiya, energiya va agrotexnik jihozlarni mahalliy ishlab chiqarish va ta'mirlash bazalarini kengaytirish lozim.

Ilmiy-tadqiqot va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish. Yashil texnologiyalar bo'yicha universitetlar, ilmiy markazlar va xorijiy institutlar bilan qo'shma grant dasturlari tashkil etish orqali yangi echimlarni amaliyotga joriy etish imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-4477-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/4539502>
2. <https://www.stata.com>
3. Hamidov, A., et al. (2022). Rebound Effects in Irrigated Agriculture in Uzbekistan: A Stakeholder-Based Assessment. Sustainability, 14(14), 8375.
4. Ashurmetova, N. A., Mynbaeva, A. U., Ibrahimova, M. F. (2023). Role and Development of Digital Agriculture in Uzbekistan. Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, Vol. 17 (2023), pp. 4–7.
5. Uroqov, A. S., Nosirov, F. J., et al. (2024). Implementing a Solar Photovoltaic Station in Watering Systems. BTSTU Research Journal (2024).
6. Ikramov, N., Kasimov, F., Rakhimova, M. (2025). Energy efficiency monitoring system of operated irrigation pumping stations in Uzbekistan. Journal of Water and Land Development (JWLD)
7. Khitakhunov, A. A. (2021). Agriculture in Central Asia: Current State and Development Perspectives. The Journal of Economic Research & Business Administration, 138(4), 59
8. Understanding and mastering integrated agriculture, technologies: Evidence from extension experience Denis Hörner, Adrien Bugen and e.t.
9. The World Bank Economic Review, 36(1), 2022, 68–90
10. <https://doi.org10.1093/wber/lhab025>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>